

MOVAROUNNAHRDA TAFSIR VA FIQH ILMI TARAQQIYOTI: NASAF ALLOMALARI MISOLIDA

Imom Buxoriy nomidagi

Toshkent islom institute bakalavr

Bosqichi 402-guruh talabasi

Ahmadxo'jayev Halilulloxon

Tel: +998908555544

Annotatsiya

Ushbu maqolada Markaziy Osiyo, xususan, Movarounnahr zaminining Islom sivilizatsiyasidagi o'rnini, Nasaf shahri ilmiy muhiti va u yerdan yetishib chiqqan yirik ulamolarning hayoti va ilmiy merosi tahlil qilinadi. Ayniqsa, Abu Barakat an-Nasafning "Madarikut-tanzil" asari va uning tafsir ilmidagi ahamiyatiga alohida urg'u beriladi.

I. Kirish: Qur'on va ilmning fazilati

Insoniyat tarixida ilm-fanning rivojlanishi bevosita vahiydan olingan turtki bilan bog'liqdir. Alloh taolo savodsizlar orasiga O'z Rasulini yubordi:

هُوَ الَّذِي بَعَثَ فِي الْأُمِّيِّينَ رَسُولًا مِنْهُمْ يَتْلُو عَلَيْهِمْ آيَاتِهِ وَيُزَكِّيهِمْ وَيُعَلِّمُهُمُ الْكِتَابَ وَالْحِكْمَةَ وَإِنْ كَانُوا مِنْ قَبْلُ لَفِي ضَلَالٍ مُبِينٍ

U zot savodsizlar ichidan, garchi ular bundan avval ochiq zalolatda bo'lsalar ham, ularga oyatlarini o'qib beradigan va ularni poklaydigan hamda Kitobni va hikmatni o'rgatadigan Payg'ambarini yubordi¹. (juma surasi 2-oyat)

¹ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Tafsiri Hilol" 28-juz, 553-bet.

O'sha davr arablari ummiy qavm deyilgan, chunki ularning ichlarida o'qish-yozishni biladiganlari juda oz bo'lgan. Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom o'qish-yozishni mutlaqo o'rganmaganlar.

Ilm tolibi shug'ullanadigan narsalarning eng xayrlisi — uni o'z Rabbiga va Yaratuvchisiga yaqinlashtiradigan, Uning diniga oid bo'lgan ilmlardir. Bu borada Alloh taoloning Kitobi va unga bog'liq bo'lgan fanlar, xususan, tafsir ilmidan ko'ra ulug'roq va sharafliroq narsa yo'qdir. Zero, tafsir ilmi orqali Alloh O'z bandalarini hikmatli zikr (Qur'on) ma'nolarining nozik jihatlaridan, bayon va tushuntirishlarning go'zalligidan voqif etadi.

Bu ilm orqali bandalar uchun eng to'g'ri yo'lga hidoyat topish, rahmat, bashorat va hikmatli oyatlar tarkibidagi barcha ma'nolar imkonli bo'ladi. Alloh taolo aytganidek:

إِنَّ هَذَا الْقُرْآنَ يَهْدِي لِلَّتِي هِيَ أَقْوَمُ وَيُبَشِّرُ الْمُؤْمِنِينَ الَّذِينَ يَعْمَلُونَ الصَّالِحَاتِ أَنَّ لَهُمْ أَجْرًا كَبِيرًا

Albatta, bu Qur'on eng to'g'ri yo'lga hidoyat qilur va yaxshi amallarni qiluvchi mo'minlarga, albatta, o'shalarga, ulug' ajr borligi xushxabarini berur².

(Isro surasi, 9-oyat)

Yana U Zot aytadiki:

بِالْبَيِّنَاتِ وَالزُّبُرِ وَأَنْزَلْنَا إِلَيْكَ الذِّكْرَ لِتُبَيِّنَ لِلنَّاسِ مَا نُزِّلَ إِلَيْهِمْ وَلَعَلَّهُمْ يَتَفَكَّرُونَ

Ochiq-oydin bayonotlar va kitoblar ila (yubordik). Va senga odamlarga nozil qilingan narsani o'zlariga bayon qilib berishing uchun zikrni nozil qildik. Shoyadki, tafakkur qilsalar³. (Nahl surasi, 44-oyat).

Qur'oni Karimning ismlaridan biri «zikr» ekanini boshqa joylarda ham aytib o'tgan edik. Ushbu oyat ham uni «zikr» deb atamoqda. Ya'ni, Payg'ambarlarni o'z qavmlariga

² Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. "Tafsiri Hilol" 15-juz, 283-bet.

³ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. "Tafsiri Hilol" 14-juz, 272-bet.

turli ochiq-oydin bayonotlar va kitoblar bilan yubordik. Seni esa, ey Muhammad, odamlarga nozil qilingan narsani o‘zlariga bayon qilib berishing uchun zikr — Qur’on ila yubordik.

Ushbu muborak oyatlar va hikmatli zikrdagi boshqa ko‘plab dalillar shuni ko‘rsatadiki, Qur’oni Karimning nozil qilinishidan maqsad — insonlarni hidoyatga boshlash va din ahkomlarini bayon qilishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun esa, albatta, ma’nolarni tafsir qilish va bandalarni hayotning barcha jabhalarida — xoh u aqida bo‘lsin, xoh ibodat, muomala, kundalik turmush, axloq va xulq-atvor bo‘lsin — to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltiruvchi hukmlarni tushunish lozimdir."

Alloh taoloning Kitobi bilan mashg‘ul bo‘lish — ilmlarning eng ulug‘idir. Zero, Qur’on hidoyat manbaidir. Alloh taolo marhamat qiladi:

«Albatta, bu Qur’on eng to‘g‘ri yo‘lga hidoyat qilur...» (Isro surasi, 9-oyat).

Ushbu hidoyatni tushunish va uni hayotga tatbiq etish uchun Tafsir ilmi xizmat qiladi. Tafsir — faqat so‘zlar ma’nosini o‘rganish emas, balki insoniyatning e’tiqodi, ibodati va ijtimoiy nizomini isloh qiluvchi ilmdir.

II. Movarounnahr islom sivilizatsiyasining beshigi

Milodiy VII asrdan boshlab O‘rta Osiyo mintaqasining Islom sivilizatsiyasi bilan uzviy bog‘liqligi boshlandi. Aynan o‘sha davrda arab musulmonlari bu o‘lkani fath etib, unga "Movarounnahr" (daryoning ortidagi yerlar) deb nom berdilar. O‘sha zamonlardan e’tiboran, bu zamin Islom shariati va uning tarmoqlari, shuningdek, matematika, tibbiyot va falsafa kabi fanlarda o‘zlarining ulkan va mashhur hissalarini qo‘shgan ko‘plab buyuk olimlarni dunyoga keltirdi.

Bugungi Markaziy Osiyo respublikalarining Islomiy madaniy merosga qo‘shgan hissasi bir-biridan farq qiladi. Buning sababi shundaki, O‘zbekiston, Turkmaniston va Tojikiston aholisi qadimdan Ceyhun (Amudaryo) atrofida o‘troq holda yashab, shahar madaniyatini barpo etganlar. Shu bois ularda ilmiy va madaniy meros salmog‘i yuqori.

Aksincha, Qirg'iziston va Qozog'iston aholisining aksariyati uzoq vaqt davomida ko'chmanchi turmush tarzini davom ettirganlar.⁴

Ko'chmanchi va o'troq turmush tarzi o'rtasidagi bu ikki yoqlamalik Movarounnahr va Xurosonning aksar shaharlarida, xususan, Samarqand, Buxoro, Termiz va Nasaf kabi ilmiy va diniy markazlarda yaqqol namoyon bo'ldi.

Nasaf shahri haqida manbalarda shunday deyiladi:

Yoqut Hamaviy o'zining 'Mu'jamul buldon' asarida: 'Nasaf — ko'plab ulamolar yetishib chiqqan buyuk shahardir', — deb ta'rif bergan. Istaxriy esa shunday yozadi:

'Nasaf shahri tekislikda joylashgan bo'lib, unda na tog' va na tepalik bor. Uning to'rtta darvozasi mavjud. Shahar o'rtasidan katta bir daryo oqib o'tadi. Bu daryo o'z boshlanishini Kesh (Shahrisabz) yaqinidagi tog'lardan oladi. Daryo qirg'og'ida Amirlik qarorgohi qad rostlagan, shaharning barcha qishloq va tumanlari aynan shu daryodan suv ichadi'.

Nasafning o'ziga xosligi shundaki, u obod va ko'm-ko'k bo'lishiga qaramay, shaharning o'zida birorta ham jome masjidi (minbari) bo'lmagan; barcha diniy marosimlar shahar tashqarisidagi namozgohlarda ado etilgan. Shaharning aksar yeri unumdor va hosildor bo'lib, bugungi kunda bu qadimiy shahar O'zbekiston hududida joylashgan."

Markaziy Osiyo hududi Islom sivilizatsiyasi bilan VII asr oxiri va VIII asr boshlarida bog'landi. Qutayba ibn Muslim boshchiligidagi fathlardan so'ng, bu o'lka (Movarounnahr) ilm-fan markaziga aylandi.

Mintaqadagi ilmiy transformatsiya:

Madaniyatlar to'qnashuvi: Ceyhun (Amudaryo) bo'yida istiqomat qilgan xalqlar o'troqlashib, Islom nuri bilan ilmda peshqadam bo'lishdi.

⁴ Abu Barakot an-Nasafiyning „Al-Akmal Al-Atval“ 1-juz 5-bet

Shaharlarning o'ri: Samarqand, Buxoro va Termiz qatorida Nasaf (Naxshab) shahri ham o'ziga xos ilmiy nufuzga ega bo'ldi. Yoqut al-Hamaviy o'zining "Mu'jamul-buldan" asarida Nasafni "ko'plab ulamolar yetishib chiqqan ulug' shahar" deb ta'riflaydi.

III. Abu Barakot an-Nasafiy: Hayoti va ilmiy faoliyati

U kishi Abdulloh ibn Ahmad ibn Mahmud an-Nasafiydir. Hafizuddin (dinning himoyachisi), faqih (huquqshunos), usul olimi, hanafiy, mufassir (Qur'on sharhlovchisi), mutakallim (aqida olimi) bo'lganlar. Shuningdek, u zot keyingi davr zohidlaridan va amal qiluvchi ulamolarning peshqadamlaridan biri hisoblanadi.

Imom an-Nasafiy Nasaf shahrida tug'ilganlar Bu shahar Jeyhun (Amudaryo) va Samarqand o'rtasida joylashgan katta va mashhur shahar bo'lib, u zotning tavallud yili ma'lum emas.

Imom al-Laknaviy "Al-Favoid al-Bahiyya" asarida u zot haqida shunday deydi: > "U kishi o'z zamonasining mislsiz, mukammal imomi, fiqh va usul ilmlarida peshvo, hadis va uning ma'nolari borasida yetuk olim bo'lganlar. U kishi dunyo (ilm-fanining) belgilaridan biridir."

Ibn Kamol Posho kabi mo'tabar imomlar u zotni kuchli va zaif rivoyatlarni ajrata oladigan, kitoblarida rad etilgan gaplarni va zaif rivoyatlarni keltirmaydigan muqallidlar (taqlid qiluvchilar) tabaqasining birinchi darajasiga qo'yishgan. Bu daraja - "mutafaqqihlar" (fiqhni chuqur tushunuvchilar) tabaqalarining eng quyisi bo'lib, mujtahidlardan pastroq hisoblanadi.

Boshqa ulamolar esa u zotni mazhabdagi "muhrijin" (masala chiquvchilar) va "murajjihin" (bir necha qarashdan birini afzal ko'ruvchilar) tabaqasidan deb hisoblaganlar va: "U kishidan keyin mazhabda u zotga teng keladigan mujtahid topilmagan", deganlar. To'rtinchi tabaqadagi "mutloq ijtihod"ga kelsak, u allaqachon yakunlangan edi.

Nasaf ulamolari ichida eng mashhuri — Abu Barakot Hafizuddin Abdulloh ibn Ahmad an-Nasafiydir (vaf. 710 h. / 1310 m.). U Hanafiylik mazhabining ustunlaridan biri, faqih, usulchi va mufasssirdir.

Ilmiy darajasi:

Imom al-Laknaviy uni "o'z zamonasining mislsiz imomi, fiqh va usulda peshvo" deb atagan. U muctahidlarning darajalariga ko'ra yuqori o'rinlarda turadi. An-Nasafiy o'z asarlarida faqat ishonchli rivoyatlarni keltirishi va zaif gaplardan qochishi bilan ajralib turadi.

Asarlari:

"Madarikut-tanzil va haqiqut-ta'vil": Bu tafsir kitobi ahli sunna va jamoa yo'nalishidagi eng mo'tabar manbalardan biri bo'lib, o'zining ixchamligi va ravonligi bilan ajralib turadi.

"Kanzud-daqiq": Fiqh sohasidagi eng mashhur matnlardan biri.

"Al-Manar": Usulul-fiqhda (huquq metodologiyasi) klassik qo'llanma hisoblanadi.

IV. Nasaf ilmiy maktabining boshqa namoyandalari

Nasaf faqat Abu Barakot bilan cheklanib qolmaydi. Bu zamin bir necha asrlar davomida muhaddis va faqihlarni yetishtirib berdi:

Abu Hafs an-Nasafiy (vaf. 537 h.): "Najmuddin" (Din yulduzi) laqabi bilan tanilgan. Uning "Al-Aqoidun-nasafiyya" asari asrlar davomida madrasalarda asosiy darslik bo'lib kelgan.

Imom al-Mustag'firiyy (vaf. 432 h.): Muhaddis va tarixchi. U Nasafning tarixi va u yerdagi olimlar haqida "Tarixi Nasaf" asarini yozgan.

Ibrohim ibn Ma'qul an-Nasafiy: Nasaf qozisi bo'lgan, buyuk muhaddislardan hadis rivoyat qilgan ishonchli olim.

Hammad ibn Shokir: Imom Buxoriyning "Sahih"ini rivoyat qilgan shogirdlaridan biri bo'lib, hadis ilmini Movarounnahrda yoyishga katta hissa qo'shgan.

V. Tafsir ilmining maqsadi va "Madarikut-tanzil"ning ahamiyati

Qur'on nozil qilinishidan maqsad — insonlarni zulmatdan nurga chiqarishdir. Buning uchun esa oyatlarni bayon qilib berish lozim:

«Senga odamlarga nozil qilingan narsani bayon qilib berishing uchun va shoyadki tafakkur qilsalar, deb Zikrni nozil qildik» (Nahl surasi, 44-oyat).

Imom an-Nasafiy o'z tafsirida aynan shu maqsadni amalga oshiradi. U oyatlarning:

Zohiriy ma'nolarini tushuntiradi.

Xofiy (yashirin) ma'nolari va hikmatlarini ochib beradi.

Hayotiy hukmlarni (e'tiqod, ibodat, muomalat) Qur'ondan qanday chiqarishni ko'rsatadi.

VI. Xulosa: Tarixiy merosning bugungi kun uchun ahamiyati

Movarounnahr ilmiy merosi, xususan, Nasaf ulamolarining asarlari bugungi kunda ham Islom olamida o'z qadrini yo'qotgani yo'q. Abu Barakot an-Nasafiy kabi allomalarning ilmiy uslubi — matnlarni chuqur tahlil qilish, mantiqiy xulosalar chiqarish va aqida sofliğini saqlashga asoslangan.

Ushbu merosni o'rganish hozirgi avlod uchun nafaqat tarixiy g'urur, balki ilmiy-ma'naviy yuksalish poydevoridir. Zero, Nasaf maktabi bizga ilmda davomiylik, ustoz-shogird an'anasi va vatanparvarlikning go'zal namunasini ko'rsatib ketgan.

Foydalanilgan asosiy manbalar:

Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. "Tafsiri Hilol".

Abu Barakot an-Nasafiy. "Madarikut-tanzil".

Yoqut al-Hamaviy. "Mu'jamul-buldan".

Al-Laknaviy. "Al-Favaidul-bahiyya".